

## Mansur ibn Nuh II



# Mansur ibn Nuh II

**Abu Horis**

(?-999)

(997-999)

**Somoniylar** amiri. Uning davrida mamlakatda parokandalik, ichki nizolar (Mansur bilan lashkarboshilar o'rtasida) tashqi xafv (qoraxoniylarning hujumlari) kuchaygan. Ayniqsa, qoraxoniylar tomoniga o'tgan xoin lashkarboshilardan **Foyiq** saroyga nisbatan uyushtirgan fitnalarda faol qatnashadi. 999 yilning fevralida **Foyiq** turk g'ulomlariga suyangan holda Mansurni taxtdan ag'darib, ko'zini ko'r qiladi. Taxtga Mansurning ukasi **Abdumalik ibn Nuhni** o'tkazishdi. Bu kuchsizlanib qolgan somoniylar sulolasiga payt poylab berilgan kuchli zarba edi. **Mahmud G'aznaviy** 999 yilning may oyida Mansur uchun o'ch olish shiori ostida Movarounnahrqa qarshi qo'shin tortdi. U somoniylar qo'shinini tor-mor qilib katta o'ljalar bilan G'aznaga qaytdi. Jang oqibatida Xuroson **Mahmud G'aznaviy** qo'liga o'tadi. Yuzaga kelgan bu vaziyatdan qoraxoniylar hukmdori **Elik Nasr** ham foydalanishga harakat qilgan. Shu yili Movarounnahr qoraxoniylar tomonidan egallangan.

2023-10-29 20:55:21